2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 38 (1099), 2024-yil 22-fevral, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI “KELAJAK O‘YINLARI”NING OCHILISH MAROSIMIDA ISHTIROK ETDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 21-fevral kuni “Kelajak o‘yinlari” musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahrida bo‘ldi.**

Qozon shahriga amaliy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Rossiya Prezidentini sportning an’anaviy va virtual turlarini o‘zida mujassam etgan “Kelajak o‘yinlari” birinchi xalqaro musobaqasi o‘tkazilayotgani bilan samimiy qutladi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb jihatlari, jumladan, o‘tgan yil 5-7-oktabr kunlari Moskva shahrida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Yetakchilar O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

2023-yilda bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishlari, hududlar, ta’lim, tibbiyot forumlari, qator boshqa ishbilarmonlik va madaniyat tadbirlarining samarali natijalari yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlashning ijobiy sur’ati saqlanib qolmoqda. Sanoat, energetika, transport, kimyo, farmatsevtika va boshqa tarmoqlardagi loyihalar faol bosqichga kirgan.

Hududlar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Toshkent va Jizzax viloyatlarida “Ximgrad” industrial texnoparklari muvaffaqiyatli ishlamoqda. Buxoro va Navoiy viloyatlarida yangi “Alabuga” va “Master” innovatsiya parklari barpo etilmoqda.

Davlat rahbarlari transport yo‘laklarini birgalikda rivojlantirish, temir yo‘l transporti sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar.

Mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi, bo‘lajak xalqaro tadbirlar rejasi ko‘rib chiqildi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozon shahrida “Kelajak o‘yinlari” birinchi xalqaro multisport musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

“Qozon Ekspo” xalqaro ko‘rgazmalar markazida bo‘lib o‘tgan tadbirda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va boshqa xorijiy mehmonlar ham qatnashdi.

Ishtirokchilar e’tiboriga “Kelajak o‘yinlari” dasturiga kirgan sport turlari haqida videolavha va teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishi taqdim etildi.

Davlatimiz rahbari ishtirokchilarga omad tilab, 2026-yilgi “Kelajak o‘yinlari”ni O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif qildi.

Marosimdan so‘ng oliy martabali mehmonlar maxsus ko‘rgazma bilan tanishdilar. Virtual makondagi bellashuvlar va an’anaviy sportni o‘zida mujassam etgan “fijital-sport” konsepsiyasi to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Yetakchilar kibersport musobaqalarini, fijital-futbol bo‘yicha mashg‘ulotlar jarayonini kuzatdilar, sportdagi yangi yo‘nalishning bugungi rivoji va istiqbollari haqida hikoya qiluvchi tasviriy san’at namunalari va taqdimotlar bilan tanishdilar.

“Kelajak o‘yinlari” – bellashuvlar bir vaqtning o‘zida sportning an’anaviy turlari va ularning raqamli muqobillarida o‘tkaziladigan yuqori texnologik musobaqadir. U joriy yilning 21-fevral kunidan 3-mart kuniga qadar davom etadi.

Turnirda 100 dan ortiq mamlakatdan qariyb 300 ta jamoa, shu jumladan, O‘zbekiston vakillari ishtirok etmoqda. Yurtdoshlarimiz fijital-xokkey, virtual velopoyga, sport dasturlash kabi yo‘nalishlarda kuch sinashadi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozon shahriga amaliy tashrifi yakunlandi.

**O‘zA**

# MILLIY STRATEGIK REJALASHTIRISH TIZIMI

## huquqiy asoslarni takomillashtirish jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladi



**Prezidentimizning keng jamoatchilik hukmiga havola qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni joriy yilda samarali bajarish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishishga qaratilgan tizimli harakatlarni izchil davom ettirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.**

Xususan, unda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 5 ta yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati belgilangan.

Bu jarayonda ekspertlar, turli soha mutaxassislarining berayotgan takliflari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, davlat dasturi loyihasida ko‘zda tutilayotgan chora-tadbirlar va ularning ijrosi, qonunchilikda kutilayotgan o‘zgarishlar borasida mutaxassislar fikri bilan qiziqdik.

*Davomi 3-betda*

**Munosabat**

# INDIVIDUAL IJTIMOIY XIZMATLAR DASTURI

## EHTIYOJMAND TOIFALAR AYNAN QANDAY YORDAMGA MUHTOJLIGI ANIQ BELGILANADI

**Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratilib, ijtimoiy xizmat turlari va ko‘lami kengaytirilmoqda. 2023-yil 1-iyunda davlatimiz rahbarining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan edi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.**

Prezidentimiz raisligida 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ana shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilib, istiqboldagi vazifalar belgilandi.

Tegishli agentlik, qo‘mita va mahalliy hokimliklar rahbarlarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.

**Mansurbek OLLOYOROV,**
**Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori:**

— Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining ehtiyojmand qatlamini muhofazalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Keyingi yillarda bu borada keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilandi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham bu borada keng qamrovli vazifalar belgilangan va izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

*Davomi 2-betda*

**O‘zbekiston va xalqaro maydon**

# EKSPORTGA YO‘L

## sifat nazoratidan boshlanadi

**Xorijdagi vatandoshlarimizdan ko‘p eshitamiz: hozir dunyoning ko‘plab davlatlari bozorida o‘zbek brendi ostidagi mahsulotlarni topish mumkin. Hatto okean orti mamlakatlarida ham “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” degan yorliq ostidagi mahsulotlar do‘kon rastalarini bezab turibdi. Bu yurtimizda eksport uchun qulay muhit yaratilib, tadbirkorlarimiz an’anaviy hamkor davlatlardan tashqari, yangi bozorlarga kirib borayotgani natijasi. Xususan, o‘tgan yili mamlakatimiz eksportining o‘sish sur’ati 123,8 foizni tashkil etdi. Yurtimiz tashqi savdo aylanmasi hajmi qariyb 62,6 milliard dollarga yetib, shundan 24,4 milliard dollari eksport hissasiga to‘g‘ri keldi. Milliy mahsulotlarimiz jahonning 110 dan ortiq davlatiga kirib bormoqda.**

Albatta, bularning bari jozibador raqamlar. Ularga erishish oson bo‘lmaganini esa soha vakillari yaxshi biladi. Hamkorlik, kelishuv va boshqa ko‘plab iqtisodiy masalalardagi qiyinchiliklar bir tomon. **Ammo eksportda yana bir muhim va zarur jihat bor, bu — mahsulot sifati. Ayniqsa, dunyoda xalqaro sifat va standart ko‘rsatkichlariga talab ortib borayotgan bugungi davrda ushbu mezon yanada qat’iylashmoqda. Ya’ni tovarga yopishtirilgan sifat yorlig‘i uning xalqaro standartlar talablariga to‘la mos kelishini tasdiqlagan taqdirdagina, xorijdagi bozorlar rastalaridan joy oladi.**

Xo‘sh, bu tizim mamlakatimizda qanchalik namunali ishlamoqda? Afsuski, bu borada hamon ko‘zga tashlanayotgan kamchiliklar yo‘q emas. Joriy yilning 18-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ayni shu jihat ham tanqid qilindi. Ta’kidlanganidek, **O‘zbekiston “GSP+” tizimiga qo‘shilib, Yevropaga 6 ming 200 turdagi tovarlarni bojsiz olib kirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, o‘tgan yili bu tizim doirasida bor-yo‘g‘i 384 turdagi tovarlar eksport qilingan. Meva-sabzavot eksporti uchun xorijiy davlatlarning fitosanitar ruxsatlari olinganiga qaramasdan, bundan to‘liq foydalanilmagan.**

*Davomi 4-betda*

**Uyg‘oq fikr**

# YOSH AVLOD VATANPARVARMI YOKI ISTE’MOLCHI?

**Endi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi ham o‘zgaradi. Bunda ehtiyojmand toifani aniqlash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqiladi va ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniq belgilab beriladi.**

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 22-fevral, 38-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Munosabat

# INDIVIDUAL IJTIMOIY XIZMATLAR DASTURI

## EHTIYOJMAND TOIFALAR AYNAN QANDAY YORDAMGA MUHTOJLIGI ANIQ BELGILANADI

> **Har bir oila va inson taqdiriga alohida professional yondashuv mazkur sohada ishlayotgan vazirlik va idoralar xodimlaridan tortib, mahalla tizimidagi mas’ullargacha olib borayotgan ishlarni tubdan o‘zgartirish, o‘ziga nisbatan talabchanlikni yanada oshirishni taqozo etadi. Jumladan, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tizimida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklanadi.**

**Boshlanishi 1-betda**

Bundan tashqari, O‘zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilgan va shuning asosida zimmamizga olingan muhim vazifalar ijrosiga katta e’tibor qaratilyapti. Yig‘ilishda ana shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etildi, ijtimoiy himoya va aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq chora-tadbirlar belgilab berildi. Bu jarayonda aholiga yanada yaqinroq bo‘lish maqsadida mahallalarga tushib ishlash lozimligi alohida qayd etildi.

Ma’lumki, kam ta’minlangan oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni jamiyatga integratsiyalash uchun, avvalo, ularni ta’limga jalb etish, sog‘lig‘ini muhofazalash, kasb o‘rgatish, mehnat qilishi uchun qulay sharoit yaratish muhim. Bu yo‘nalishda ham ishlarni tashkil etish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi. Xususan, endilikda nogironligi bo‘lgan shaxslarga ishlash va kasb-hunarga o‘qishda to‘siqsiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechiladi. Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan nogironligi bor shaxslar uchun oliy ta’limda alohida kvota joriy etilgan edi. Joriy yil bu imkoniyatdan bahramand bo‘lgan ikki mingdan ziyod yoshlar oliy o‘quv yurtlarini tugallab, jamiyatimizga kirib kelyapti. Yaratilayotgan yangicha imkoniyatlar ularning bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash masalasi ham doim e’tiborda turibdi. Endilikda bu vositalarga ajratilayotgan mablag‘ hajmi 1,5 barobarga oshiriladi. Yana bir muhim masala — protez va reabilitatsiya vositasini nogironligi bo‘lgan shaxsning o‘zi tanlaydi. Joylardagi ijtimoiy xizmat va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari xodimlari esa bu boradagi ishlarni tizimli tashkil etishga mas’ul bo‘ladi.

Umuman olganda, endi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi ham o‘zgaradi. Bunda ehtiyojmand toifani aniqlash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqiladi va ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniq belgilab beriladi. Muhtojlarning har biri bo‘yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi bo‘ladi.

**Ozoda PARPIBOYEVA,**
**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi:**

— Videoselektor yig‘ilishidagi masalalarning barchasi bevosita oilalar, xususan, ijtimoiy qiyin vaziyatdagi insonlar, nogironligi bor fuqarolar, ota-onasidan ayrilgan yoshlarni manzilli va maqsadli qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirish, har bir oila va inson taqdiriga alohida professional yondashuv mazkur sohada ishlayotgan vazirlik va idoralar xodimlaridan tortib, mahalla tizimidagi mas’ullargacha olib borayotgan ishlarni tubdan o‘zgartirish, o‘ziga nisbatan talabchanlikni yanada oshirishni taqozo etadi. Jumladan, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tizimida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklanadi.

Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda oila va xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari, ayollarni zo‘ravonlik va tazyiqdan himoya qilish tizimi kuchaytirildi. Bu boradagi ishlar xalqaro darajada, nufuzli institutlar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Berilgan topshiriqlar asosida tazyiqqa uchragan ayollarga mahallaning o‘zida tezkor kompleks xizmat ko‘rsatish tizimi orqali mahallalardagi xotin-qizlar faollari, ichki ishlar vazirligi tizimidagi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektor ayollar, “mahalla yettiligi” tizimi hamkorligida tazyiqqa uchragan ayol bilan birga unga nisbatan shu holatni sodir etgan fuqaroni tuzatish dasturlarini yanada kuchaytiramiz. Bu boradagi ishlar 2023-yilda o‘z natijasini berib, himoya orderlari taqdim etilishi 2022-yilga nisbatan 1,1 barobarga kamaygan bo‘lsa-da, bunday muammolar hayotimizda uchrab turgani mas’ul vazirlik va idoralar hamkorligini yanada kengaytirish, mahalla tizimidagi yangi mexanizmni samarali yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ota-onasidan ayrilgan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topib ketishi uchun ko‘maklashish maqsadida joriy etiladigan “Yoshlarga hamrohlik” dasturini amalga oshirish ham bevosita qo‘mita tizimiga mas’uliyat yuklaydi. Andijon viloyatida oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangicha yondashuv asosida olib borish maqsadida Jalaquduq tumanida “Oila va xotin-qizlar maskani”ni tashkil etish loyihasini ishlab chiqqan edik. Prezidentimizning qiyin vaziyatdagi yosh onalarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Onalar maskani” xizmatini yo‘lga qo‘yish borasidagi topshirig‘i aynan mana shu loyihamizni respublika miqyosida amalga oshirishga mustahkam zamin yaratdi.

Bugun bevosita inson omili bilan ishlaydigan mas’ullarning odamlar tashvishini chuqur o‘rganmay, uning dardini o‘zidan o‘tkazmay ishlashga mutlaqo haqqi yo‘q. Videoselektor yig‘ilishida bildirilgan tanqidiy fikrlar buni yana bir karra isbotlaydi. Ushbu tanqidiy mulohazalardan xulosa chiqarib, mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirgan holda bir qator ishlarni rejalashtiryapmiz.

Jumladan, Bolalar ombudsmani bilan birgalikda voyaga yetmagan qizlarni unashtirishning oldini olish borasidagi targ‘ibot va amaliy ishlarni kuchaytiramiz. Jamoatchilik faollarining ushbu holatlar bo‘yicha bildirayotgan taklif va fikrlarini o‘rganamiz, hamkorlikni kengaytiramiz. Qashqadaryo viloyatida ko‘proq kuzatilayotgan erta unashtiruv va erta turmush holatlarining oldini olish bo‘yicha qilinayotgan ishlarni o‘rganib, sabablarini ochiqlaymiz.

Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda olib borgan ishlarimiz hamda ilmiy-tadqiqot institutlarimiz tadqiqotlari natijasida ma’lum bo‘ldiki, nogiron tug‘ilayotgan go‘daklarimizning katta qismi qarindoshlar o‘rtasidagi nikohga to‘g‘ri keladi. Shuni inobatga olib, aholi orasida voyaga yetmaganlar va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning salbiy oqibatlaridan ogohlantirish ishlarini davom ettiramiz. Zarur hollarda hudud hokimlarining ushbu masalalarga bo‘lgan e’tiborini kuchaytirish choralarini ko‘ramiz.

Hamkorlar bilan birga qizlarning ta’lim olishi, oliy ma’lumotli bo‘lishi yo‘lidagi islohotlar mohiyatini yanada kengroq targ‘ib etamiz.

**Odiljon ATOULLAYEV,**
**Yangiyo‘l tumani hokimi:**

— Prezidentimizning 2023-yilda qabul qilingan “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tumanimizda ham ijtimoiy xodimlar tomonidan ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Xodimlarimiz mahallalarda xatlov o‘tkazib, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan oilalar ro‘yxatini shakllantirdi. Bu jarayonda nogironligi bor bo‘lgan shaxslarning 1071 nafari mehnatga layoqatli ekani ma’lum bo‘ldi. Ya’ni 40 nafari oliy, 203 nafari o‘rta-maxsus hamda 830 nafari o‘rta ma’lumotli. Bugungi kunda ularning 325 nafari bandligini ta’minlashga erishdik.

Shuningdek, nogironligi bor shaxslarning 296 nafari 25 turdagi parasportga yo‘naltirildi. Mehnatga layoqatli 748 nogironligi bo‘lgan fuqaroni ishga joylashtirish yuzasidan har bir tashkilotda nogironlarni sog‘lom turmush tarziga qaytarish maqsadida kamida bittadan ish o‘rinlarini ularga ajratish yuzasidan manzilli dastur ishlab chiqyapmiz.

Umuman olganda, hozirgi kunda ular bilan manzilli va maqsadli ish olib boryapmiz. Birinchi navbatda, ularga kasb-hunar o‘rgatish, so‘ngra kafolatlangan ish joyi yaratish yuzasidan izlanyapmiz. Yaratilayotgan ish joyi ham nogironligi bo‘lgan shaxs uchun har tomonlama qulay bo‘lishi kerak. Shundagina bunday insonlarni jamiyat hayotida faol bo‘lishga jalb eta olamiz.

Videoselektor yig‘ilishida shu yo‘nalishda olib borayotgan ishlarimizga o‘ziga xos baho berildi, kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi va ularni hal etish bo‘yicha aniq topshiriqlar qo‘yildi. Ushbu topshiriqlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish zimmamizdagi muhim vazifadir.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.**

Biz va dunyo

# INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH — USTUVOR VAZIFA

## Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Rossiyaga tashrifi haqida

**O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 21-fevral kuni “Kelajak o‘yinlari” musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahrida bo‘ldi.**

Tashrif davomida O‘zbekiston va Rossiya davlat rahbarlarining ikki tomonlama uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda 2023-yil 5-7-oktabr kunlari Rossiyaga rasmiy tashrif yakunida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish hamda keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Eslatib o‘tamiz, Rossiyada ilk bor tashkil etilayotgan va 21-fevral — 3-mart kunlari bo‘lib o‘tadigan “Kelajak o‘yinlari” sportning an’anaviy turlari, ilmiy ishlanmalar va raqamli texnologiyalarni o‘zida mujassam etgan musobaqadir. Ushbu yirik sport tadbirida 107 mamlakatdan 227 ta jamoa, jumladan, O‘zbekiston sportchilari ham ishtirok etmoqda.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, haqiqiy va kibersportni o‘zida mujassam etgan ushbu innovatsion musobaqa formati MDH yangi jahon tendensiyalari asosida rivojlanib borayotganining muhim ko‘rsatkichidir.

> **Rossiyada ilk bor tashkil etilayotgan va 21-fevral — 3-mart kunlari bo‘lib o‘tadigan “Kelajak o‘yinlari” sportning an’anaviy turlari, ilmiy ishlanmalar va raqamli texnologiyalarni o‘zida mujassam etgan musobaqadir. Ushbu yirik sport tadbirida 107 mamlakatdan 227 ta jamoa, jumladan, O‘zbekiston sportchilari ham ishtirok etmoqda.**

> **“Kelajak o‘yinlari”, aslida, eng yirik sport tadbiri bo‘lib, davlat rahbarlarining shaxsan ishtiroki buning yorqin ifodasini namoyon etmoqda.**

**Daria REKEDA,**
**“Iqtisodiyot oliy maktabi” milliy tadqiqot universiteti Yevropa va xalqaro keng qamrovli tadqiqotlar markazi yetakchi eksperti:**

— “Kelajak o‘yinlari” haqida gapirar ekanman, bunday tadbirlarning ahamiyatini alohida ta’kidlamoqchiman. Chunki, birinchidan, bu haqiqiy sport va kiber trendlarni birlashtirgan innovatsion shakldir. Qozondagi “Kelajak o‘yinlari”da ishtirok etish uchun kelgan barcha terma jamoalar musobaqaning asosiy qismida ham, kibersport qismida ham umumiy ochkolarni qo‘lga kiritishi kerak.

Ta’kidlash kerakki, MDH davlatlari rahbarlarining Qozonda yig‘ilishining sabablari ham bor. Chunki inson kapitalini rivojlantirish barcha davlatlar uchun ustuvor vazifa sanaladi. Shu ma’noda, O‘zbekistonda IT-klaster va kibersportni rivojlantirish borasida, haqiqatan, ko‘p ishlar qilinmoqda. Prezident maktablarida, ayniqsa, matematika bo‘yicha bunga alohida yo‘nalish berilib, maxsus sinflar tashkil etilganidan xabardormiz. Bu soha Rossiyada bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham juda tez rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Davlatlarimiz texnologik taraqqiyotda yopiq emasligi juda muhim. Biz kompyuterlar va turli sport musobaqalari yoshlarga qanday yomon ta’sir qilishi haqida turli platformalardan eshitamiz, lekin, aslida, biz allaqachon bu haqiqat bilan birga yashayapmiz.

Kibernetika sohasida yoshlar salohiyatini rivojlantirishga yuqori darajada e’tibor qaratilayotgani, fikrimcha, davlatlarimiz global jarayonlar sur’atida harakatlanayotgani, yopiq bo‘lmayotgani va bu jarayonni cheklashga urinmayotganining yaxshi belgisidir.

MDH davlat yetakchilari, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev, Qozog‘iston va Qirg‘iziston yetakchilarining Qozonga kelishi MDH yangi jahon tendensiyalari asosida rivojlanib borayotganining muhim ko‘rsatkichidir.

“Kelajak o‘yinlari”, aslida, eng yirik sport tadbiri bo‘lib, davlat rahbarlarining shaxsan ishtiroki buning yorqin ifodasini namoyon etmoqda.

**Viktor KIM,**
**Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Osiyo va Yevropa mamlakatlari instituti katta ilmiy xodimi:**

— Yangi O‘zbekistonning qarashlari kelajakka, XXI asrning ilg‘or texnologik jarayoniga qaratilgan. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozon shahrida ilk bor o‘tkazilayotgan “Kelajak o‘yinlari” musobaqasining ochilish marosimida ishtirok etish uchun Rossiyaga amalga oshirgan tashrifi ikki davlatning yangi ilg‘or kelajakni birgalikda barpo etish borasidagi samimiy niyatlarini tasdiqlaydi. Ushbu turnir an’anaviy sport turlari, ilmiy ishlanmalar va raqamli texnologiyalarni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos musobaqadir.

O‘zbekiston rahbarining Qozon shahrida “Kelajak o‘yinlari” musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etishi nafaqat gumanitar sohadagi hamkorlikning yangi shakllarini qo‘llab-quvvatlash va ularga qiziqish bildirish, balki 2023-yil 5-7-oktabr kunlari Rossiyaga rasmiy tashrif yakunida erishilgan kelishuvlarni mustahkamlash va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

**Jan-Antuan DYUPRA,**
**Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti, O‘zbekiston bo‘yicha mutaxassis (Fransiya):**

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 21-fevral kuni ushbu mamlakatga amaliy tashrifi ikki tomonlama munosabatlar izchil rivojlanishining mantiqiy davomi, ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan ishonchli aloqalarning dalilidir.

Ko‘p qirrali O‘zbekiston — Rossiya hamkorligi barcha sohalarda, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli rivojlanib borayotganini qayd etish kerak. 2023-yilda 9,8 milliard AQSH dollaridan oshgan o‘zaro tovar ayirboshlash hajmining o‘sishi fikrimizni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston va Rossiya BMT, MDH, SHHT, boshqa global va mintaqaviy tuzilmalar doirasida ham yaqin hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Qozon shahriga tashrifi davomida MDH davlatlari rahbarlari bilan birgalikda “Kelajak o‘yinlari” musobaqasining rasmiy ochilish marosimida ishtirok etdi. Ushbu yirik sport tadbirida 107 mamlakatdan 227 jamoa, jumladan, O‘zbekiston sportchilari qatnashmoqda. “Kelajak o‘yinlari”ning asosiy g‘oyasi “fijital” — virtual va real sportni birlashtirgan yangi turdagi sport musobaqasidir. Musobaqani butun dunyo bo‘ylab 150 millionga yaqin odam onlayn tomosha qilishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga tashrifi ikki mamlakat va xalqlar o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

**“Dunyo” AA**

# MILLIY STRATEGIK REJALASHTIRISH TIZIMI

## huquqiy asoslarni takomillashtirish jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladi

Boshlanishi 1-betda

**Abdulaziz RASULEV, yuridik fanlar doktori, professor:**

— Qonunchilikni takomillashtirish O‘zbekiston huquqiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Qonunchiligimizda qator o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu yurtimizda kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan bog‘liq. Bunday o‘zgarishlar tizimli va muvofiqlashtirilgan choralarni talab qiladi. Shu sababli qonun ijodkorligi faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish rejalarini o‘z ichiga olgan dastur va maqsadli hujjatlarni qabul qilish amaliyoti shakllandi. Shulardan biri “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidir.

2023-yilda Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2023” strategiyasini amalga oshirish to‘g‘risidagi tegishli qarori qabul qilinishi bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxatini tasdiqlash amaliyoti yuzaga keldi. Mazkur qarorda 113 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi belgilangan.

Bu amaliyot 2024-yilda ham davom ettirilib, yo‘nalishlar kesimida jami 103 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Xususan, 18 ta qonun loyihasi, Prezidentning 3 ta farmoni va 14 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori va 2 ta farmoyishi loyihasi shular jumlasidan.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, amalga oshirilishi davom etayotgan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan dolzarb vazifalarning bajarilishi ta’minlanadi.

Ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxatini tasdiqlash qator afzalliklarga ega.

Birinchidan, ular “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha tasniflanadi. Bu 2030-yilga qadar rejalashtirilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish imkonini beradi. Xususan, yod tanqisligining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilishi strategiyaning aholi o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirish bo‘yicha 13-maqsadiga, jumladan, saraton, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va nafas olish kasalliklaridan erta o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishga yo‘l ochadi. Yana bir misol — bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish. Ushbu chora strategiyaning 24-maqsadi — bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ya’ni jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni rad etish madaniyatini shakllantirishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, farmon loyihasida ishlab chiqilishi rejalashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasining mazmuni to‘g‘risida umumiy qoidalar ko‘zda tutilgan. Masalan, Vazirlar Mahkamasining aholini ish bilan ta’minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlar yaratishga oid qarori loyihasini ishlab chiqish. Unda quyidagilar nazarda tutiladi:

— autstaffer (ish beruvchi) xodimini boshqa ish beruvchiga shartnoma asosida yuborish tartibini ishlab chiqish;

— autstaffing xizmatlarini ko‘rsatishda taraflarning majburiyatlarini belgilash;

— autstaffing xizmatlari ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha bajarilishiga yo‘l qo‘yilmaydigan ishlar turlari ro‘yxatini shakllantirish.

Yana bir misol — Vazirlar Mahkamasining temir yo‘l transporti sohasida davlat tomonidan tartibga solinadigan va bozor tamoyillari asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxatini tasdiqlashga oid qarori loyihasini ishlab chiqish. Ushbu hujjat doirasida temir yo‘l sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlarning barchasini qamrab olgan holda, davlat tomonidan tartibga solinadigan va bozor tamoyillariga o‘tadigan xizmatlar turlarini tasdiqlash rejalashtirilmoqda.

Bunday tartib mas’ul ijrochilarga normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy mazmuni va ma’nosini tushunishga imkon beradi. Bundan tashqari, jamoatchilik qonunchilikda rejalashtirilgan o‘zgarish haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘ladi. Bu juda muhim, ayniqsa, farmon loyihasini muhokama qilish bosqichida.

Uchinchidan, normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish uchun muddatlar va mas’ul ijrochilar belgilangan. Ta’kidlash joizki, mas’ul ijrochilar tegishli farmon loyihasining maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda belgilanmoqda. Loyihalarning asosiy qismini ishlab chiqishni Iqtisodiyot va moliya (9 ta loyiha), Madaniyat (5 ta loyiha), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliklariga (3 ta loyiha) topshirish taklif etilmoqda. Shu bilan birga, mavzuni hisobga olgan holda normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqishda amaliy yordam ko‘rsatadigan hamijrochilar ko‘rsatilyapti.

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida ayrim hollarda fuqarolik jamiyati institutlari bilan faol hamkorlikni ham ko‘rish mumkin. Xususan, atoqli adiblarning tavallud sanalarini adabiyot va kitobxonlik bayramlari sifatida nishonlash, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha hujjatlarni ishlab chiqishda Yozuvchilar uyushmasi ijrochi sifatida ko‘rsatilmoqda. Savdo-sanoat palatasi esa yod tanqisligining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish (kaliy yodatni keng ishlab chiqarish orqali) va ishga qabul qilishda ish beruvchilar tomonidan talab etiladigan hujjatlar sonini qisqartirish to‘g‘risidagi qonun loyihalarini ishlab chiqishda ijrochilardan biri sifatida qayd etilgan.

Farmon loyihasining tahlili rejalashtirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan qator muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya qoidalarini amalga oshirishga e’tibor qaratish lozim. Ta’kidlash joizki, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni amalga oshirish doirasida qabul qilindi. Bunda muhim konstitutsiyaviy yangiliklarga e’tibor qaratish lozim.

Masalan, loyihada mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari funksiyalarini ajratishning huquqiy asoslarini aks ettirish maqsadga muvofiq. Bu Konstitutsiyaning hokimlar va Xalq deputatlari kengashlari raislari lavozimlari ajratilishini nazarda tutgan 120-moddasiga ham, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 75-maqsadiga ham mosdir. Farmon loyihasida mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, mahalliy hokimliklar, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy bo‘linmalari vakolatlari doirasida hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarni aniq belgilash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Fikrimizcha, farmon loyihasi doirasida konstitutsiyaviy qoidalarning bajarilishiga e’tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, tegishli sohada huquq ijodkorligi bo‘yicha to‘plangan tajribani hisobga olish. Ayrim normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo‘yicha huquqiy tartibga solishga oid muayyan tajriba to‘plangan. Masalan, muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida muhandis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalasi ko‘tarilgan. Tabiiy va muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlashni kengaytirish vazifasini amalga oshirish doirasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetiga aylantirildi. Fikrimizcha, bu tajriba butun mamlakat, xususan, hududlarda muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun foydali bo‘ladi.

Uchinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda amaldagi huquqiy tartibga solishdagi bo‘shliqlarni aniqlash kerak. Ulardan biri bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish choralarini yanada kuchaytirishdir.

Darhaqiqat, bolalarga qarshi axborot tahdidlari aynan virtual makonda kuchaymoqda. Statistikaga ko‘ra, dunyo bo‘ylab bolalarning 72 foizi kamida bitta kibertahdidni boshdan kechirgan. So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda “Ko‘k kit” o‘yini qayta tiklanishi haqida ham ma’lumotlar paydo bo‘lmoqda. Shu sababli farmon loyihasida bolalarni internetdagi tahdidlardan himoya qilishni kuchaytirish bo‘yicha hujjat ishlab chiqish bo‘yicha taklif etilgan chora juda o‘rinli. Shu munosabat bilan qonunchilikda mavjud kamchiliklarni hisobga olish va ularni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining maqsadlarini amalga oshirish orqali to‘ldirish muhim.

> “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi muhim dasturiy hujjat bo‘lib, uning amalga oshirilishi erkin va farovon, kuchli davlat qurish bo‘yicha barcha maqsadlarga erishish imkonini beradi. Jamoatchilik tomonidan ko‘plab takliflar bildirilayotgani huquqiy siyosatni shakllantirish muhimligidan dalolatdir.

To‘rtinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish va ishlab chiqishga ilmiy-akademik va ekspert-tahliliy doiralarni yanada kengroq jalb etish lozim. Aynan shu tashkilotlar muhim hujjatlarni ishlab chiqish va muhokama qilishda faol ishtirok etishi kerak.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi muhim dasturiy hujjat bo‘lib, uning amalga oshirilishi erkin va farovon, kuchli davlat qurish bo‘yicha barcha maqsadlarga erishish imkonini beradi. Jamoatchilik tomonidan ko‘plab takliflar bildirilayotgani huquqiy siyosatni shakllantirish muhimligidan dalolatdir. Shu sababli strategiyada bayon etilgan g‘oyalarni tizimli va izchil ravishda hayotga tatbiq etish nafaqat davlat, balki jamiyat, xususan, har birimizning ishtirokimiz orqali amalga oshiriladi!

**Sardorbek MIRZOKARIMOV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yetakchi ilmiy xodimi:**

— Jahon iqtisodiyoti “barqaror”, “raqamli” va “yashil” ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan bir davrda strategik rejalashtirishning roli mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun har doimgidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish shartlari “barqaror” maqsadlarga asoslanishi zarur.

Bu kabi maqsad va vazifalar esa odatda strategiyalar, konsepsiya va maqsadli dasturlarda, ya’ni strategik xarakterdagi hujjatlarda aks ettiriladi.

Strategiya, konsepsiya va maqsadli hujjatlarni ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etish strategik rejalashtirish tizimining asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. Sanab o‘tilgan hujjatlar strategik rejalashtirishning mahsuli bo‘lib, ular jamiyat va davlat rivoji uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, strategik rejalashtirish maqsad va boshqaruv mezonlarini shakllantirish, muammolar va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan muhitni tahlil qilish, strategik g‘oyalarni aniqlash, ssenariylar va taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlash orqali strategik hujjatni ishlab chiqish jarayonidir.

Strategik rejalashtirish odatiy rejalashtirishdan maqsad va vazifalari, ilmiy-amaliy tahlillari va prognozlarga asoslangani, maqsadlarga erishishning maqbul variantlari yaratilishi, vositalar va resurslar bilan ta’minlangani, ijro mexanizmlari belgilanishi, davlat budjeti mablag‘laridan yanada samarali foydalanishga qaratilgani bilan farqlanib turadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga doir raqamlar ham strategik xarakterdagi hujjatlar ishlab chiqishga yo‘nalish beradi. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tahlillariga ko‘ra, 2030-yilga borib, yurtimiz aholisi 41 milliondan oshadi. Bu esa urbanizatsiya, ijtimoiy infratuzilma va boshqa ijtimoiy sohalar (sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta’lim) tizimini tegishincha rivojlantirib borishni va raqamlarda keltirilgan aholi ehtiyojlariga javob bera oladigan darajaga yetkazishni talab etadi.

Davlatchilik taraqqiyotining barcha davrlarida strategik rejalashtirish tizimidan unumli foydalanishga harakat qilingan. O‘tgan asrning 60-yillaridan yuqori iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga ega mamlakatlar ham rivojlanishning 5-10 yillik va hattoki bir necha o‘n yilliklarga mo‘ljallangan milliy dasturlarini qabul qila boshladi.

Rivojlanishning strategik hujjatlarga asoslanishi davlat boshqaruvida va xalqaro tashkilotlarning faoliyatida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, BMT hujjatlarida aks ettirilgan va bevosita uning muvofiqlashtiruvi ostida amalga oshirilgan “O‘n yillik rivojlanish dasturlari”, “Ming yillik rivojlanish maqsadlari”, “Barqaror rivojlanish maqsadlari” ko‘plab mamlakatlar uchun iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni belgilashda muhim andaza bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada xorijiy davlatlarning o‘rta va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan dasturlardan keng foydalanish amaliyoti shakllandi.

O‘zbekistonda ham 2017-yildan e’tiboran mamlakatni yoki muhim tarmoqlarni o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishning strategik xarakterga ega bo‘lgan hujjatlari qabul qilina boshlandi.

Hozirgi kunda umummilliy, sohaviy va hududiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan, strategik xarakterdagi 60 dan ziyod hujjat — strategiya, konsepsiya, dastur qabul qilindi va amalga oshirilmoqda. Ularning ayrimlari keng qamrovliligi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, 2017-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-yildagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va 2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi.

Umummilliy, sohaviy va hududiy strategiyalar asosida mamlakatni rivojlantirishga e’tibor berilishi strategik rejalashtirish tizimini huquqiy jihatdan yanada takomillashtirishga turtki bo‘lmoqda. Ayni damda milliy strategik rejalashtirish tizimi Konstitutsiya, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa sohaviy normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan. Biroq tahlillar natijasida shunday fikrga kelish mumkinki, strategik rejalashtirish tizimining asosiy elementlaridan biri bo‘lgan yagona qonunchilik hujjatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, Daniyada “Rejalashtirish to‘g‘risida”gi, AQSHda “Davlat organlari faoliyatini baholash to‘g‘risida”gi, “Davlat boshqaruvi va javobgarligini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, Kanadada “Ta’sirni baholash to‘g‘risida”gi, Avstraliyada “Rejalashtirish to‘g‘risida”gi, Yangi Zelandiyada “Hududiy rejalashtirish to‘g‘risida”gi, Yaponiyada “Milliy hududiy rejalashtirish to‘g‘risida”gi, Singapurda “Rejalashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan.

MDH davlatlarida ham ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Rossiyada “Strategik rejalashtirish to‘g‘risida”gi qonun, Qozog‘istonda hukumatning “Davlat rejalashtirish tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Ushbu davlatlarda strategik rejalashtirish tizimining qonunchilik asoslarini belgilash bilan birga uning institutsional asoslari ham yaratilgan. Masalan, AQSHda Boshqaruv va budjet idorasi, Fransiya hukumati huzurida rejalashtirish bo‘yicha Fransiya Bosh komissarligi, Fransiya Strategiya markazi, Koreya Respublikasida Strategiya va moliya vazirligi, Singapurda Bosh vazir devonidagi Strategiya guruhi, Qozog‘istonda Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi tashkil etilgan. Ular strategik rejalashtirish tizimini boshqaradi va ushbu sohadagi davlat siyosatini muvofiqlashtiradi.

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasida “Strategik rejalashtirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklifi nazarda tutilishi juda ham dolzarb. O‘zbekistonda davlat boshqaruvida strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish, xususan, sohada yagona tizimlashgan qonun hujjati — “Strategik rejalashtirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va uni qabul qilish davlat strategik rejalashtirish tizimidagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi.

Fikrimizcha, ushbu qonun qabul qilinsa, avvalo, davlat boshqaruvida strategik rejalashtirishning tizimlashgan qonunchilik asosi yaratiladi. Turli darajadagi strategik xarakterdagi hujjatlarni qabul qilishning metodologik asoslari takomillashtiriladi. Shuningdek, nafaqat respublika yoki sohalarni rivojlantirish, balki hududlar, xususan, chekka, olis shahar va tumanlarni ham kompleks rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishning muvofiqlashgan tartibi joriy etiladi.

Bundan tashqari, davlat strategik hujjatlari (strategiya, konsepsiya, dastur)ni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, natijalarini monitoring qilish va baholash tizimi mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi. Davlat hokimiyati boshqaruvi organlari tizimida strategik rejalashtirish tizimini muvofiqlashtiruvchi, strategiyalar monitoringi va baholash tizimini amalga oshiruvchi maxsus davlat hokimiyati organining maqomiga aniqlik kiritiladi, uning vazifalari va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi.

Davlat boshqaruvida milliy strategik rejalashtirish tizimi huquqiy asoslari takomillashtirilishi davlat va jamiyatning oldiga qo‘ygan oliy manfaatlari, fuqarolarimiz turmush tarzini yaxshilash hamda hududlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Lutfulla SUVONOV yozib oldi.**

**Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qiladigan 6 mingga yaqin eskirgan standartlardan foydalanish to‘xtatildi, 3,5 ming standart zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirildi.**

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 22-fevral, 38-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘zbekiston va xalqaro maydon

# EKSPORTGA YO‘L
## sifat nazoratidan boshlanadi

Boshlanishi 1-betda

Bu masala ko‘p jihatdan mahsulotning jahon standartlari talablariga moslashtirilmayotgani bilan ham bog‘liq. Ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab korxonalarimizda xalqaro sertifikat yo‘qligi uchun global logistika zanjirlariga qo‘shila olmayapti. Iqtisodiyotning drayver sohalarida xalqaro standartlarni joriy qilish darajasi 35 foizga ham yetmaydi. Shu bois, mutasaddilarga korxonalarda xalqaro sifat tizimlarini joriy etish, sifati kafolatlangan mahsulotlar turini ko‘paytirish, salohiyatli davlatlar bilan milliy sertifikatni ikki tomonlama tan olish bo‘yicha kelishuvlarga erishish vazifasi qo‘yilgan.

### O‘zaro tan olish tamoyili

Gap har bir davlatning bozor borasidagi o‘z qonun-qoidalari, qonunchilik hujjatlari, tovar va mahsulotlarning kirib kelishiga aloqador talablari haqida bormoqda. Bunday talablar O‘zbekistonda ham mavjud. Soha tilida aytganda, “texnik to‘siqlar” ichki bozor sifati va sofligini, iste’molchilar huquqlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu to‘siqlarni bartaraf etish xorij bozoriga ham keng yo‘l ochadi. Ya’ni xalqaro sertifikatga ega mahalliy korxonalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, eksport hajmi shuncha ortib boraveradi.

Keyingi yillarda bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda 30 mingga yaqin ichki standartlardan qariyb 20 mingtasi xalqaro me’yorlar bilan uyg‘unlashtirilib, xalqaro standartlar reyestri shakllantirildi. **Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qiladigan 6 mingga yaqin eskirgan standartlardan foydalanish to‘xtatildi, 3,5 ming standart zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirildi.** Ayni paytda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bilan shug‘ullanadigan 50 dan ortiq korxona “Global GAP” va “Organic” standartlariga muvofiq, sifat tizimiga rioya qilgan holda faoliyatini amalga oshirmoqda. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini xalqaro talablar asosida sertifikatlash kengayib boryapti.

Xo‘sh, milliy akkreditatsiya tizimi xalqaro darajada tan olinganining yana bir isboti sifatida e’tirof etilayotgan ushbu a’zolik bizga nima beradi? Mamlakatimiz eksporti, mahalliy tadbirkorlarimizning jahon bozoriga chiqishi va brendimizni ommalashtirishda qanchalik ahamiyatga ega?

— Ushbu nufuzli tashkilotlarga a’zolik, avvalo, milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro standartlar asosida ishlashining kafolati bo‘lib, endilikda O‘zbekistonda amalga oshirilgan sifat bo‘yicha sinovlar dunyoning 116 ta davlatida tan olinishiga yo‘l ochildi, — deydi “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” DK direktori Ansabxon Zokirov. — Qolaversa, u o‘zaro bitim va ko‘p tomonlama xalqaro savdo shartnomalarini ishlab chiqish hamda mustahkamlash uchun xavfsiz va ishonchli poydevor sifatida xizmat qiladi. A’zo va ko‘p tomonlama bitimlarga qo‘l qo‘ygan davlatlar bir-birining mahsulot sifati sinovlarini o‘zaro tan oladi. Ya’ni “bir marotaba sinovdan o‘tkazib, butun dunyoda tan olish” tamoyiliga ko‘ra ish yuritadi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro bozorlarga erkin kirib borish, boshqa mamlakatlar sertifikatlaridan foydalanish hamda tan olish huquqini beradi. Tadbirkorlar uchun esa ushbu bitimlarga a’zo bo‘lish tovar va xizmatlarni ko‘proq ishonch bilan sotib olish imkonini yaratadi. Ya’ni buyurtmachi aynan tan olingan standartlarga javob beradigan tovar va xizmatlarga ega bo‘lishiga ishonch hosil qilgan holda uzoq xorijdan yetkazib beruvchilarni tanlashi mumkin. Bu a’zolikdan ishlab chiqaruvchilar ham manfaatdor. Gap shundaki, mahsulotlarning xalqaro standart talablariga javob berishi va sertifikatlangan bo‘lishi ichki va tashqi bozor raqobatida ustunlikka erishishga yordam beradi.

### Talablar qat’iy

**Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi muhim sanalar ekan, xalqaro sifatlarni joriy etish dolzarb bo‘lib boraveradi. Sinov hujjati yoki sertifikat esa mahsulot yoxud xizmatning sifati, xavfsizligiga kafolat hisoblanadi.** Ammo bunday sertifikatlarni berishga mas’ul laboratoriyalarning o‘zi ham avval akkreditatsiyadan o‘tishi lozim. Ya’ni ularning xalqaro talablarga javob berishi rasmiylashtirilishi kerak. Tartibga ko‘ra, ular “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat korxonasi tomonidan baholanib, ijobiy deb topilgan holatdagina xalqaro standartlar asosida akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Shundan keyin ushbu laboratoriyalar tomonidan beriladigan sertifikatlar xorijda tan olinib, tadbirkorlarga o‘z mahsulotini eksport qilish imkoniyatini oshiradi.

Mahsulot, xizmat yoki jarayon bo‘ladimi, ularga nisbatan o‘rnatilgan talabga qanchalik javob berishini aniqlash muvofiqlikni baholash hisoblanadi. Hozirgi kunda muvofiqlikni baholashni amalga oshiradigan idoralar turi juda ko‘p, ulardan eng keng tarqalgani esa sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish idoralaridir. Bugunga qadar **yurtimizda akkreditatsiyadan o‘tgan 247 ta sinov laboratoriyasi va 113 ta sertifikatlashtirish idorasi faoliyat yuritib kelmoqda.**

Akkreditatsiya natijalari xalqaro darajada tan olinishi ham iqtisodiy o‘sish va eksportdagi asosiy jihatlardan biri. O‘tgan yili fevral oyida qabul qilingan “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida ham bu boradagi vazifalar belgilangani bejiz emas. Chunki yurtimizda bu alohida tizimga aylangani holda, xalqaro standartlarning berilishi nafaqat korxonalar faoliyati, balki mamlakat imijini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

> **Sifatni baholovchi korxonalarni akkreditatsiyadan o‘tkazish oson jarayon emas. Bunda 3 ta asosiy prinsip — halollik, shaffoflik va ochiqlik bosh mezonga aylanadi. Ana shu talablarga javob bera olgan tashkilotgina akkreditatsiyadan o‘tib, ishlab chiqaruvchilarga xalqaro sifat sertifikatlarini taqdim etish huquqiga ega bo‘ladi.**

— Qonun Jahon savdo tashkilotining savdodagi texnik to‘siqlar kelishuvi, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomasi talablaridan kelib chiqib, Serbiya, AQSH, Kanada, Koreya, Yevropa Ittifoqi va MDH davlatlari tajribalari asosida ishlab chiqilgan, — deydi Ansabxon Zokirov. — Uning amaliyotga kiritilishi milliy sifat infratuzilmasi yanada takomillashib, O‘zbekistondagi akkreditatsiya idorasining xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarida to‘laqonli ishtirok etishi, standart belgimizni dunyo tan olishi, tadbirkorlarimizning yangidan-yangi eksport bozorlariga to‘siqlarsiz chiqishiga imkoniyat yaratmoqda.

Chindan ham sinovdan o‘tgan, tekshirilgan tovar va xizmatlar xaridorlarda doim ishonch uyg‘otadi. Bu bozorda raqobatni shakllantirishda ham muhim jihatlardan biri. Shu bois, sifatni baholovchi korxonalarni akkreditatsiyadan o‘tkazish oson jarayon emas. Bunda 3 ta asosiy prinsip — halollik, shaffoflik va ochiqlik bosh mezonga aylanadi. Ana shu talablarga javob bera olgan tashkilotgina akkreditatsiyadan o‘tib, ishlab chiqaruvchilarga xalqaro sifat sertifikatlarini taqdim etish huquqiga ega bo‘ladi.

Dunyo bozoridagi talab ham shunday. Hammasi o‘z tartibi, qonun-qoidasi bilan bo‘lishi kerak. Shundagina yurtimizda eksportchilarga berilayotgan xalqaro standartlar jahon bozorida tan olinadi va bu O‘zbekistonning sifat infratuzilmasi bo‘yicha indekslarda yuqori o‘rin egallashi, yurtimiz investitsion salohiyati, eksport ko‘lamining oshishi, eng muhimi, aholining sifatli mahsulot, tovar yoki xizmatga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston bu borada yirik xalqaro tashkilotlar a’zosiga aylangan ekan, nafaqat mavjud standartlarni keng joriy etishda, shu bilan birga, ularni ishlab chiqishda ham faol ishtirok etayotgani quvonarli.

**Iroda TOSHMATOVA,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

Bugunning gapi

# DIZEL YONILG‘ISI NARXI 15 FOIZGA PASAYTIRILDI
## BUNING HISOBIGA PAXTA YETISHTIRUVCHILAR IXTIYORIDA QANCHA MABLAG‘ QOLADI?

**Hakim ELMANOV,**
*O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi Iqtisodiy tahlil va rejalashtirish boshqarmasi boshlig‘i*

**Prezidentimiz raisligida shu yil 12-fevral kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida qishloq xo‘jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokama etilib, sohaga klaster tizimi orqali yuqori unumli texnika va chuqur qayta ishlash kirib kelayotgani tufayli ham miqdor, ham samaradorlik jihatidan rivojlanishga erishilayotgani alohida e’tirof etildi. Ammo ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, agrar sohada unumdorlikni oshirish, tannarxni kamaytirish, suvni tejash oldimizda turgan eng ustuvor vazifalar ekani qayd etildi.**

Davlatimiz rahbari qishloq xo‘jaligi korxonalari, xususan, klaster va fermer xo‘jaliklarining barqarorligida xarajat kamligi o‘ta muhim ekaniga alohida to‘xtalib, paxta yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatiga birja savdolariga qo‘yilayotgan dizel yonilg‘isi narxini 15 foizga pasaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Kuni kecha “O‘zbekneftgaz” AJ dizel yonilg‘isining narxi EKO dizel yonilg‘isi narxiga nisbatan 15 foizga arzonlashtirilganini e’lon qildi. Ya’ni jamiyatga qarashli barcha neft baza omborlaridan “YEVRO-5 SSDF” rusumli dizel yonilg‘isi bir tonnasi 11 608 190 so‘mdan arzonlashtirilgan narxlarda birja savdolariga joylashtirildi.

Xo‘sh, ushbu yengillik paxta yetishtiruvchilarga qancha iqtisodiy naf beradi? Klaster va fermerlar faoliyatida samaradorlikni oshirishda qanday rol o‘ynaydi?

Avvalo, shuni aytish kerakki, paxtachilik tarmog‘ida yonilg‘i-moylash materiallari eng muhim hisoblanadi. Negaki, chigit ekishdan tortib, g‘o‘za parvarishi, hosil yetishtirish va yig‘ishtirib olishgacha bo‘lgan barcha agrotexnika tadbirlari sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi yonilg‘i-moylash materiallari ta’minotining barqarorligiga, eng asosiysi, narxining maqbulligiga bog‘liq.

Ochig‘ini aytish kerak, dizel yonilg‘isi bahosining yuqoriligi haqli e’tirozlarga ham sabab bo‘layotgan edi. Ana shunday paytda uning narxi pasaytirilgani paxta yetishtiruvchilarga katta ko‘mak, soha rivojiga muhim poydevor bo‘ldi.

Dastlabki hisob-kitoblarga qaraganda, yonilg‘i-moylash materiallari narxida berilayotgan imtiyozlar hisobiga paxta yetishtiruvchi klaster va fermerlar ixtiyorida kamida **585 milliard** so‘m mablag‘ tejab qolinar ekan.

Darhaqiqat, har bir gektar g‘o‘za maydoniga 0,26 tonna dizel yonilg‘isi sarflanishini hisobga olsak, 1 million gektarda yetishtiriladigan paxta hosili uchun 260 ming tonna yonilg‘i sarflanadi. Bu avvalgi narxda hisoblaganda, 3,9 trillion so‘m, pasaytirilgan narxda esa 3,3 trillion so‘mni tashkil etadi. Ko‘rib turganingizdek, o‘rtadagi farq **585 milliard** so‘m!

Ushbu mablag‘lar, birinchi navbatda, yetishtirilgan paxta xomashyosi tannarxi kamayishiga, klaster va fermer xo‘jaliklarining daromadi oshishiga olib keladi. Qolaversa, narx imtiyozi qayta ishlash bosqichlarida ham mahsulot tannarxiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini berishi bilan alohida ahamiyatga ega.

***Quyidagi jadvalda dizel yonilg‘isining avvalgi va pasaytirilgan narxlari hamda ular orasidagi farqni ko‘rish mumkin:***

| Nomi | Maydon | Sarf miqdori tn. | O‘rtacha birja narxi 1 kg. uchun so‘mda (hozirda) | Hozirgi birja narxlarida sarf-xarajat mln. so‘mda | Pasaytirilgan narxdagi hisob-kitob (15 foiz tushirilgan) mln. so‘mda | Farqi (klaster va fermer ixtiyorida qoladigan mablag‘) mln. so‘mda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yonilg‘i-moylash mahsulotlari | 1 gektar | 0,26 | 15 000,00 | 3,86 | 3,28 | **0,58** |
| | mln. gektar | 260 000,00 | 15 000,00 | 3 900 000,00 | 3 315 000,00 | **585 000,00** |

Yangicha yondashuvlar

# ADIROBODLIKLAR
## JAHON BOZORIGA CHIQYAPTI

**Beshariq tumanidagi Adirobod dala-dashtlari o‘tgan asrning saksoninchi yillari o‘zlashtirilib, o‘rikzor bog‘larga aylantirilgan edi. Tumanning janubiy sarhadlari bo‘ylab yastanib ketgan bog‘-rog‘lar erta ko‘klamda gulga burkanadi. Tabiiy iqlim, musaffo havo mo‘l va sifatli hosil olish imkonini beradi.**

Ammo yarim asrdirki, toshda gul undiradigan mirishkor bog‘bonlar o‘z mehnatidan katta manfaat ko‘rmay kelgan. Sababi, pishiqchilik mavsumida sarxil mevalar faqat birlamchi xomashyo sifatida ichki iste’mol bozoriga chiqarilgan, manfaatdorlik ham shunga yarasha bo‘lgan. Bu mahsulotni saqlash va qayta ishlash korxonalari yo‘qligi tufayli edi.

Mamlakatimizda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘hna qishloq hayot tarziga taraqqiyot epkinlarini olib kirdi. Natijada bu yerdagi manzara butkul o‘zgardi.

“Trust agro” MCHJ tashabbusi bilan bog‘ qo‘ynida quruq mevalarni qayta ishlash korxonasi ish boshladi. Bu yerda aholi va fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan o‘rik, olxo‘ri, yong‘oq, mayiz singari quritilgan mevalarni danagidan ajratish va qadoqlash yo‘lga qo‘yildi.

— Xitoydan yuqori unumli texnologiyalar olib keldik, — deydi loyiha tashabbuskori Topvoldi Madrahimov. — Yil davomida 5 ming tonnadan ortiq quruq meva zamonaviy texnologiyalar yordamida saralanib, danagidan ajratilib, qadoqlanmoqda. Shu kunga qadar bu yo‘nalishda zamonaviy ishlab chiqarish korxonasi yo‘q edi. Yangi loyiha tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirdi, sifatini oshirdi. Ayni kunda qo‘shimcha tarmoqlarni foydalanishga topshirish borasida ish olib boryapmiz.

Korxona ish boshlaganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Xalqaro bozorda tabiiy ta’m va foydali vitaminlarga boy bo‘lgan quruq mevalarga talab ortayotgani tufayli ish unumi ham, ko‘rilayotgan daromad ham oshmoqda. Hozirda umumiy qiymati 2 million dollardan ortiq 1000 tonnaga yaqin quruq meva Rossiya, Xitoy, Belarus, Qozog‘iston, Litva va Polsha kabi davlatlarga eksport qilindi.

Bu yerda bir paytning o‘zida 60 dan ortiq doimiy va 120 ta kasanachilik asosida ish o‘rni yaratilgan.

— Uyimizga yaqin hududda zamonaviy korxona tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi, — deydi “Yangiqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘inida istiqomat qiluvchi Yulduzxon Qo‘qonboyeva. — Uch million so‘mgacha oylik maosh olyapmiz, bepul tushlik, ishga borib-kelishimiz uchun transport xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

Beshariq tumanida 4 ming gektardan ortiq mevali bog‘lar bor. Yangi loyiha mavjud bog‘lardan yanada samarali foydalanish, aholi bandligini ta’minlash, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatli.

**Rasuljon KAMOLOV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

## Uyg‘oq fikr

**Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# YOSH AVLOD VATANPARVARMI YOKI ISTE’MOLCHI?

**Inna ORLOVA,**
*psixologik rivojlanish bo‘yicha trening studiyasi direktori, amaliyotchi psixolog*

**Biz O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq tinch va osoyishta, tashqi tahdidlardan himoyalangan holda yashashga odatlanganmiz. Sayyoramizning ba’zi qismlarida yuz berayotgan beqaror siyosiy (ayrim joylarda esa harbiy) vaziyatni kuzatar ekanmiz, yaxshiyamki, bu bizga bevosita ta’sir qilmaydi, degan fikr keladi xayolimizga.**

Afsuski, bugungi hayot tarzi shu qadar beqarorki, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday og‘ir vaziyatda ham Vatanimiz, oilamiz, do‘stlarimiz va hamkasblarimizni himoya qilishga hozir turishimiz kerak. Biroq yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod bunday jasoratga tayyormi? Bizni haqiqiy ma’noda vatanparvar deyish mumkinmi?

O‘zbekiston dunyoviy davlat bo‘lib, unda kechayotgan islohotlar milliy an’analar va ilg‘or innovatsiyalarning uyg‘un tandemidir. Biz mustabid tuzumni ham, rivojlanib borayotgan suveren O‘zbekistonni ham ko‘rgan avlodmiz.

Davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat texnik taraqqiyot, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ham bog‘liq. Zero, yuksak ma’naviyatli xalqgina radikalizm, terrorizm va ekstremizm tahdidlarisiz, diniy nizolarsiz, zo‘ravonlik va shafqatsizliklarsiz porloq kelajakni qura oladi. Bu ayni haqiqat. Ammo o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari bu kabi fazilatlarga egami? Ushbu masala shu qadar hayotiy ahamiyat kasb etadiki, unga davlat darajasida ustuvor e’tibor qaratilmoqda.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari “Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, deya ta’kidladi.

Ushbu so‘zlardan so‘ng har bir mulohazali inson Vatan himoyasiga tayyor inson qanday bo‘lmog‘i kerakligi, Vatanga muhabbatni qanday singdirish mumkinligi haqida fikr yuritadi.

## BOLALARNI BEFARQ BO‘LMASLIKKA O‘RGATISHIMIZ MUHIM

Aslida, Vatanni himoya qilish nimani anglatadi? Yurt himoyasiga shaylik bu — uning manfaatlarini qo‘lda qurol bilan himoya qilishga rozilik, demakdir, deb qarash biryoqlama va tor mulohaza. Biz Vatanimizga har qanday yo‘l bilan xizmat qilsak, ya’ni ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlarimiz, rivojlangan infratuzilmani yaratish, farovonlikni oshirish va buning natijasida aholining turli qatlamlari orasidagi tafovutni kamaytirish, shu jumladan, uning yaxlitligi va tashqi chegaralarini muhofaza qilish bilan uni himoya etgan bo‘lamiz. Bunday fidoyilik davlatning o‘z fuqarolariga qanday munosabatda bo‘lishiga javoban vujudga keladi. Bu hal qiluvchi omil.

Menimcha, Vatan himoyasi bu — mamlakatning sport, fan va madaniyat yutuqlarini ko‘paytirish, demakdir. Shuningdek, har bir inson o‘z mamlakati va aholisining dunyoda ijobiy imiji shakllanishiga hissa qo‘shmog‘i darkor.

Vatanparvarlik tarbiyasi oiladan boshlanadi, masalan, suhbatlashish mobaynida o‘z mamlakatingni kamsitib qo‘ymaslik, o‘z xalqing va yagona umumiy Vatanga ega bo‘lgan boshqa qardosh xalqlarning madaniy an’analarini bilish, ularni hurmat qilish... Qonunlar va amaldorlardan norozi bo‘lgan insonni ham yoki o‘z yurti haqida faqat yaxshi so‘z deydigan insonni ham vatanparvar, deb bo‘lmaydi. Chunki vatanparvar befarq emas. U barcha kamchilik va nuqsonlarni biladi, ammo vaziyatni yaxshilash uchun qo‘lidan kelgancha harakat qiladi. Uning xulq-atvoriga qarab, butun mamlakati to‘g‘risida qanday xulosalar chiqarishi haqida qayg‘uradi. U odobli va xushmuomala, lekin Vatani, yurtdoshlari haqida yomon gapirganlarga munosib javob qaytara oladi. Albatta, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda u o‘z mamlakati chegaralari xavfsizligini himoya qilishga tayyor, chunki bu har bir vatanparvar insonning fuqarolik burchidir.

Bugungi kunda ko‘pchilik Qurolli Kuchlar safida xizmatni faqat qonun bo‘yicha majburligi sabab o‘tash bilan fuqarolik burchini ado etyapti. Lekin bu ongli va ixtiyoriy ravishda yurtini himoya qilishga shaylik emas.

Inson o‘z diyorida yoshligidanoq munosib hayot kechira olsa, uning salohiyatini yuksaltirish uchun davlat tomonidan shart-sharoitlar yaratilsa, shaxs sifatida e’zozlansa, albatta, yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi faol bo‘ladi va, shubhasiz, Vatan manfaati uchun ishlaydi.

Vatanparvarlik ba’zan millatchilik bilan adashtirib, chalkash tushuniladi. Har doim “men rus millatiga mansub o‘zbekistonlikman”, deyman. Muhimi, men xohlagan joyimda o‘z ona tilimda bemalol so‘zlay olaman, buning uchun meni hech kim ayblamaydi. Shu bilan birga, davlat tilini ham o‘rganyapman. Bu esa imkoniyatlarim doirasini yanada kengaytirmoqda.

Biz hammamiz vatanparvarlik e’tiqodiga turli yo‘llar orqali kelamiz: kimdir ilm-fan va san’at, kimdir tibbiyot va sport, kimdir esa ma’naviyat va din orqali. Shunda kunlarning birida insonda o‘z yurti va o‘zining unga tegishli ekanidan faxrlanish tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi bolalikdan, “kichik Vatan” tushunchasi orqali shakllanadi. Mening uyim, mening ko‘cham, mahallam, qo‘shnilarim... Biz bolani faqat o‘zinigina emas, atrofimizdagi odamlar, o‘rab turgan makon haqida o‘ylashga o‘rgatsak, bu tuyg‘u o‘z-o‘zidan, sekin-asta kuchayib boraveradi.

Biz, kattalar o‘zimiz o‘rnak bo‘lgan holda bolaga o‘rgatamiz, boshqacha yo‘li yo‘q. Maktablarda yoki universitetlarda fuqarolik pozitsiyasining ahamiyati haqida aqlli ma’ruzalar o‘qishingiz mumkin, ammo foydasi bo‘lmaydi. Lekin bolalikdan biz yashayotgan jamiyatga hurmat hissini singdira olishimiz ham mumkin, masalan, chiqindi tashlamaslik, zarar bermaslik, odamlarning tinchini buzmaslik, mahalliy muammolarni hal qilishda birgalikda ishtirok etish va hokazo. Ya’ni bolalarni befarq bo‘lmaslikka o‘rgatishimiz muhim. Buning uchun esa ham davlat tomonidan, ham ota-onalar tomonidan majmuaviy chora-tadbirlar qo‘llanishi lozim. Shundagina qalbida Vatan, ona yurt kabi qadriyatlar shakllangan farzandlar voyaga yetadi. Bolalar kattalarning mamlakatga bo‘lgan munosabatini takrorlaydi. Shuning uchun o‘zgarishni, avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz darkor.

**Biz, hech shubhasiz, ekologik muvozanat, musaffo havo, toza suv, bezavol tabiat tarafdorimiz. Bu masala biz uchun boshqalarga qaraganda nihoyatda dolzarb va muhimdir.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## QALBIDA MEHR-MUHABBAT TUYG‘USI MAVJUD INSONGINA G‘AMXO‘RLIK QILA OLADI

Inson har doim sayyoramiz ekotizimining bir qismi bo‘lgan. Ota-bobolarimiz sayyoramizni o‘simlik, hayvonot olami va hatto jonsiz tabiat bilan baham ko‘rayotganini juda aniq tushungan. Ular oqilona muvozanatni saqlagan holda hamjihatlikda yashay olgan. Texnologik taraqqiyot tufayli inson o‘zini ekotizimdan ajratdi va bir kuni bilan yashay boshladi. Bunday holat har doim qaysidir inson o‘zini boshqalardan yaxshiroq, afzalroq va muhimroq deb hisoblay boshlaganida sodir bo‘ladi. U strategik fikrlashdan to‘xtaydi, hozirgi kun bilan, shu daqiqada o‘zigagina yaxshilik qilish uchun yashaydi. Shu zaylda asta-sekinlik bilan o‘z hududimiz ekotizimini buzishni boshlaymiz. Afsuski, bolalarimiz kattalarning munosabati va odatlarini o‘zlashtirmoqda. Bugungi kunda ommaning pozitsiyasi bunday: aynan hozirgi daqiqadagi qulaylik va sharoit — hamma narsadan ustun. Oddiygina botanika va biologiya bo‘yicha elementar bilimlar yetishmasligi esa inson o‘z qo‘llari bilan yaratayotgan ekologik ofat ko‘lamini tushunib yetishiga to‘sqinlik qiladi.

Tabiat qonunlarini tushunishni go‘daklik davridan singdirib borish kerak. Buni so‘z bilan emas, balki inson ekotizimning barcha davrlariga integratsiyalashganini va tabiatdan tashqarida mavjud bo‘la olmasligini ko‘rsatadigan haqqoniy harakatlar bilan ko‘rsatish lozim. Masalan, suvni tejash orqali, mashinalarni ichimlik suv bilan yuvmay, plastmassadan foydalanishni cheklash, shuningdek, bolalarga o‘simliklarni qanday yetishtirishni o‘rgatish va hayvonlarga qanday g‘amxo‘rlik qilish, ularni kamsitmaslik kabi harakatlar orqali.

Bularning barchasini kattalar qila oladi va qilishi shart. Ammo muammo shundaki, hozirgi paytda farzandlarimiz buning aksini, ya’ni qarovsiz, qurib qolgan archalar, kesilgan daraxtlar, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega binolarning buzilishi kabi holatlarga guvoh bo‘lyapti. Shu ahvolda ularda o‘z yurtidan faxrlanish, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishimiz dargumon. Qalbida muhabbat tuyg‘usi bo‘lsagina, g‘amxo‘rlik qila oladi.

Bugun bolalarning ekologik tafakkuri buzilgan, ularda ekologik ong shakllanmagan. Toza havoga, ko‘chaga chiqish o‘rniga uyda qo‘llarida gadjetlar bilan o‘tirishga o‘rgandi. Ularning deyarli do‘stlari ham yo‘q, faqatgina ijtimoiy tarmoqlar orqali orttirgan tanishlari bor, xolos. Demak, kelajakda “kichik Vatan” bilan bog‘liq iliq xotiralar ham shakllanmaydi.

Ular atrof-muhitdan — mikroblaru hasharotlardan qo‘rqadi. Siz bolalarning ko‘lmaklarda shodon sakrayotganini yoki tuproqda o‘ynayotganini tez-tez uchratasizmi? Yo‘q, ota-onalar farzandlarining tabiat bilan aloqada bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki ular uchun bolasining kiyimi loy bo‘lmasligi muhimroq. Shuning uchun bola o‘zi shunchaki qadrini bilmagan yoki tushunmagan narsaga g‘amxo‘rlik ham qila olmaydi. Eng fojiali jihati shuki, asta-sekin bolada atrof-muhitni dushman sifatida qabul qilish hissi shakllana boshlaydi. Axir dushmaniga kim ham g‘amxo‘rlik qilardi?

Bolalar tabiat bilan munosabatlarimizning elementar asoslarini bilmaydi. Masalan, asalarilar yo‘qolsa, gullar ko‘payishdan to‘xtaydi va insoniyat halokatli ravishda ko‘p narsani yo‘qotadi. Chunki o‘simliklar ulkan manba, juda katta boylik hisoblanadi. O‘simlik meva va sabzavot bo‘ladi, qolaversa, uy hayvonlari uchun ozuqa hamdir. O‘simlik xomashyosi dori-darmon tayyorlashda muhim, ular qurilish materiallari va yoqilg‘i sifatida ishlatiladi. Zamonamiz bolalaridan nechtasi bu haqda biladi?

Hozirgi davrda ekologik savodxonlikning ahamiyati juda yuksak. Har bir inson — bolalar va kattalar ongiga o‘z hududi, viloyati, mamlakati tabiatini qadrlashi qanchalik muhimligini singdirish, ona yurt tabiati naqadar betakrorligi va sayyoramiz ekotizimining boshqa unsurlari bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib berish lozim. Vatanparvarlik bu — asrab-avaylash, degani. Kerak bo‘lsa, himoya qilish ham.

## XUDBIN BO‘LIB BORYAPMIZ...

Hayotga nisbatan iste’molchi sifatidagi munosabat muammosi haqiqiy vatanparvar bo‘lib yetishishga xalaqit berayotgani achinarli haqiqat. Bu odamlarni egoist, ya’ni faqat o‘zini o‘ylaydigan xudbin qilib qo‘yadi. Ular o‘z istaklari va manfaatlari, eng muhimi, qulaylikni hamma narsadan ustun qo‘yadi. Bugungi davrda deyarli hamma narsani tezda almashtirish mumkin, shu bois, hech kim o‘zida borini borida qadrlamaydi. Boshqasini sotib olish ancha oson bo‘lgan bir vaqtda singan yoki eskirgan narsangizni ta’mirlash u yoqda tursin, hatto asrab-avaylamaysiz ham. Hech kim o‘zini qiynashni hoxlamaydi. Do‘stlik birinchi janjal yoki xafagarchilikkacha davom etadi, sevgi-muhabbat esa birinchi to‘siq yoki qarshiliklarga duch kelguncha. Ammo g‘amxo‘rlik va himoya qilish har doim katta kuch, mashaqqat, birinchi navbatda, ruhiy kuch-quvvat talab qiladi.

E’tiborga loyiq jihati shuki, mamlakatimiz aholisining aksariyati kundalik farovonlik hamda iqtisodiy barqarorlik sharoitida yashamoqda. Yurtimiz iqlimi juda qulay. Biz shunga ko‘nikdik. Afsuski, bu — tanganing bir tomoni. Bugun biz hududimiz resurslariga nisbatan iste’molchilik munosabatlardan aziyat chekyapmiz: olishu bermaslik, hatto atrof-muhitga, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga zarar yetkazish.

Yoshlar o‘z vatanidan tashqarida yashash rejalarini tuzmoqda. Yigit-qizlarimiz ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va munosib farovonlikni ta’minlash boshqa joyda osonroq bo‘ladi deb hisoblaydi. Ko‘pchiligi bir kun qaytib kelishni, lekin bu nafaqaga yaqinroq bo‘lishini rejalashtirgan. Bu ayanchli. Bolalar xorijda o‘qish uchun qulay imkoniyatlarga ega bo‘lish maqsadida repetitorlarda astoydil tahsil oladi, chet tillarni puxta o‘rganadi, fan olimpiadasi va tanlovlarda qatnashadi. Ular o‘z vatanini butunlay tark etmoqchi emas, keyinchalik shunchaki qarindoshlarini ko‘rish yoki mehmonga kelishni xohlaydi. Ming afsuski, men na bolalardan va na ularning ota-onalaridan Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish rejalari haqida eshitdim.

Tan olish kerakki, vorislik huquqi tushunchasi mavjud bo‘lgan oilalarda yoshlar o‘zlarida bor narsaga g‘amxo‘rlik qiladi va uni qadrlaydi. Ular uchun oila tizimi va oilaviy an’analar quruq so‘z emas. Ularda o‘z yaqinlariga, ona yurtiga mehr va mas’uliyat tuyg‘usi shakllangan. Lekin, umuman olganda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi bugungi kunda juda dolzarb.

## MILLIY VA FUQAROLIK TUYG‘USINI QANDAY SHAKLLANTIRISH KERAK?

Bolalarda vatanparvarlik tuyg‘usini go‘daklikdanoq rivojlantirish kerakligi haqida gapirdik. Shu o‘rinda bir necha savol tug‘iladi: oilada yangiliklar qanday muhokama qilinadi? Voyaga yetgan oila a’zolari saylovlarda qatnashadimi? Oilada davlat bayramlari nishonlanadimi? Madhiya matnini bilishadimi? Ota-onalar mamlakat hayotining ijobiy tomonlarini, milliy xususiyatlarini ta’kidlaydimi yoki, aksincha, salbiy jihatlarini muhokama qiladimi? Keksa yoshdagi qarindoshlar hukumatning xayrli tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydimi yoki faqat qoralaydimi? Milliy tarix haqida nima deydi, boshqa millat va din vakillariga qanday munosabat bildiradi? Bola ota-onasi bilan muzey va ko‘rgazmalarga boradimi?

Bularning barchasi bolaning milliy va fuqarolik tuyg‘usi, shunga mos ravishda uning dunyo haqidagi tasavvuri qanday shakllanishini belgilaydi: u yurtining vatanparvariga aylanadimi yoki oddiy foydalanuvchi va iste’molchi bo‘lib yetishadimi?

Vatan himoyachisini tarbiyalash uchun, avvalo, bolani ruhiy yoki hissiy nogironga aylantirmaslik kerak. Ota-ona qayg‘urishi shart! Bolada o‘ziga ishonch va sog‘lom mustaqillikka intilish tuyg‘usini tarbiyalashi, uning fikr-mulohazalari, xulosa va qarorlarini rag‘batlantirishi lozim. Bu har doim ham bolaning fikriga qo‘shilaverishni anglatmaydi, shunchaki ota-ona o‘z nuqtayi nazarini bolaga singdirmasdan, uning pozitsiyasini hurmat qilishi maqsadga muvofiq. Oilada bola bilan iliq, samimiy munosabat bo‘lishi kerak. Abstrakt, ya’ni mavhum bo‘lgan Vatanni, insoniyatni kimdir himoya qilishi dargumon. Ammo o‘z oilasi, yaqinlarining himoyasi uchun inson qo‘liga qurol olishga ham shay turadi. Kuchli iroda, sog‘lom altruizm va intizom, yaxshi jismoniy tayyorgarlik shakllanmay turib, Vatanni himoya qilishga tayyor, deb bo‘lmaydi.

Umuman olganda, Vatan uchun o‘lmoq emas, uning manfaatlarini ko‘zlagan holda yashamoq kerakligiga butunlay ishonchim komil.

So‘zsiz, mamlakatimizda xalqning baxtli va to‘kin hayot kechirishini ta’minlash, ma’naviyatli va intellektual rivojlangan yigit-qizlarni voyaga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Biroq ko‘p narsa bizga, keksa avlod vakillariga bog‘liq. Biz yoshlardan noliyapmiz-u, lekin o‘zimiz qanday namuna ko‘rsatyapmiz? Atrofimizdagi olamni avaylab-asraylik, bor narsamizning qadriga yetaylik, yurt ravnaqiga buzg‘unchi emas, bunyod etuvchi sifatida hissa qo‘shaylik. Umid qilamizki, maqolamiz o‘quvchilarni bu haqda o‘ylashga majbur qiladi.

**Maxtumquli arab, fors tillarini puxta o‘zlashtirgan, chig‘atoy — eski o‘zbek tilini mukammal bilgan. Bu hol uning ijodidagi so‘z boyliklaridan ham ayon. Ijodidan ma’lum, Maxtumquli Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning bir qancha diyorlarini kezgan, Buxoro, Xiva, Afg‘oniston, Ozarbayjonda bo‘lgan. “Zangi Boboni ko‘rsam”, deyishiga ko‘ra, Toshkentga ham kelgani taxmin qilinadi.**

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

## Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligiga

# Ezgulikka chaqiriq

## yoxud haqiqiy do‘stlik ifodasi

**Davlatimiz rahbarining “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilinishi yurtimizdagi barcha adabiyotsevar va ma’rifatsevar muxlislar qalbida ulug‘ va quvonchli taassurot uyg‘otdi. Chunki turkman xalqining buyuk va benazir shoiri Maxtumquli barcha turkiy xalqlar orasida she’riyati sevib o‘qiladigan shoirlar sirasiga kiradi. Ikkinchidan esa bu qaror o‘zbek–turkman xalqlarining haqiqiy do‘stligini ifoda etuvchi tarixiy hujjatga aylandi.**

**Mirzo KENJABEK,**
*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bo‘lim boshlig‘i, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi*

Jahondagi turli xalqlar, jumladan, o‘zbek va turkman xalqlari do‘stligining ildizi inson zoti yaralgan va tarqalgan eng qadimiy davrlarga borib taqaladi. Bu qadimiy do‘stlik hazrat Alisher Navoiy bilan hazrat Maxtumquli satrlarida ham o‘z tavsifini topgandir. Hazrat Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni nihoyasida chiroyli e’tirof bilan aytadilar:

*Ko‘ngul bermish so‘zumga turk, jon ham,*
*Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham!*

Bunda turkman xalqi o‘ziga xos bir millat ekaniga ravshan ishorat bor.

Maxtumquli hazratlari ham Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida ta’lim olgani va u yerda Qur’oni karimni xatm qilganini ta’kidlab, hazrat Shoh Bahouddin Naqshband, hazrat Sayyid Amir Kulol, hazrat Zangi Ota kabi ma’naviyat darg‘alariga ulug‘ muhabbat va e’timodini oshkor bayon qiladi, bu orqali haqiqiy do‘stlik va qardoshlikning oliy namunasini ko‘rsatadi:

*Dehistonning bayirinda*
*Bodi saboni ko‘rsam.*
*Bahouddin, Mir Kulol,*
*Zangi Boboni ko‘rsam.*

Ikki davlat — O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlarining olib borayotgan do‘stlik va hamkorlik siyosatining ma’naviy asoslari shu qadar qadimiy, shu qadar mustahkamdir.

Mamnuniyat bilan eslaymiz, Shavkat Mirziyoyev mamlakat Prezidenti sifatida ilk marta Turkmanistonga tashrif buyurganida qardosh davlat rahbariga o‘zbek tilida chop etilgan Maxtumquli kitobini sovg‘a qilgan edi. O‘sha ilk ehtirom bugungi kunda mutafakkirning tavallud anjumani O‘zbekistonda alohida bayram qilinishiga asos bo‘lmoqda.

Ikki davlat rahbarining maqsad va g‘oyasi ham, umid va tashvishi ham asosan, tinchlik ne’matini bardavom saqlash, xalqlar do‘stligi tamoyillarini muhofaza qilishdan iborat ekani ravshan haqiqatdir. Albatta, o‘zbek va turkman xalqlarini birlashtirib turgan omillar ko‘p.

Eng birinchi omil pok va muqaddas dinimiz birligi, e’tiqodimiz mushtarakligidir. Bu olamshumul birdamlik hamisha yaxshi natijalar bergan va tinchlik-osoyishtalikning garovi bo‘lib kelgan.

Ikkinchi muhim omil madaniyat, adabiyot va san’atimiz birligidir. Buyuk turkman adibi Maxtumqulining otasi Davlatmuhammad Ozodiy faqat atoqli shoir bo‘lib qolmasdan, balki zamon allomasi, taqvo va ma’rifat ahlining peshvosi, Alisher Navoiy ijodi bilimdoni, ayniqsa, “Mahbub ul-qulub” asaridan yaxshi bahra topgan orif va oshiq zot ekani uning she’riy “Bayoz”i va “Va’zi Ozod” asaridan ma’lumdir.

Davlatmuhammad Ozodiy, Mullanafas, Maxtumquli, Andalib, Kamina singari turkman mumtoz adabiyoti vakillari hazrat Navoiy asarlarini o‘z adabiyotidek sevib, bahramand bo‘lganlar, u zotni o‘zlariga ustoz deb bilganlar. Ayni vaqtda, Maxtumquli va boshqa mumtoz turkman shoirlari she’riyati o‘zbek xalqining o‘z mulkiga aylanib ketgan.

Uchinchi muhim omil qadimdan ahil va totuv yashab kelgan yon qo‘shni, bir daryodan suv




ichgan, qadimiy Jayhun — Amudaryo suvidan bahramand bo‘lgan, o‘zaro savdo-tijoratni yo‘lga qo‘ygan, bir-birining madaniyati va ma’naviyatini boyitgan xalqlar ekanimizdir.

To‘rtinchi muhim omil asrlar davomidagi tariximizning birligi, zafar va ozodlik davrlarini ham, mustamlaka va istibdod jabrlarini ham birga kechirgan, darddosh, g‘oyadosh yashab, nihoyat, yangi istiqlol davriga ham birga erishganimizdir. Ana shunday birdamlik omillari ikki davlat rahbari yangi bosqichga ko‘tarayotgan do‘stlik va hamkorlik siyosati negizida yangicha mazmun bilan davom etmoqda. Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini O‘zbekistonda keng nishonlash to‘g‘risidagi qaror bu yangicha mazmun dalillaridan biridir.

U otasi singari boshlang‘ich ta’limni qishloq maktabida oladi. Keyin Markaziy Osiyoning ulkan madaniyat va ilm-fan markazlaridan bo‘lmish ko‘hna Xiva shahridagi Sherg‘ozixon madrasasida uch yil o‘qib, muhim ilmlarni o‘zlashtiradi, o‘zi aytganidek, dili ochiladi, oq-qorani, haq-nohaqni, do‘st-dushmanni ajratadigan bo‘ladi. Yosh olim madrasa bilan xayrlashuv she’rida shukrona tuyg‘ularini bunday ifoda etadi:

*Ajratarman endi oq-u qaroni,*
*Do‘st-raqib, qardoshim, Haqni, yoronni,*
*O‘qidim, ko‘tardim Kitob — Qur’onni,*
*Ketar bo‘ldim, xush qol,*
*go‘zal “Sherg‘ozi”.*

Maxtumquli arab, fors tillarini puxta o‘zlashtirgan, chig‘atoy — eski o‘zbek tilini mukammal bilgan. Bu hol uning ijodidagi so‘z boyliklaridan ham ayon. Ijodidan ma’lum, Maxtumquli Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning bir qancha diyorlarini kezgan, Buxoro, Xiva, Afg‘oniston, Ozarbayjonda bo‘lgan. “Zangi Boboni ko‘rsam”, deyishiga ko‘ra, Toshkentga ham kelgani taxmin qilinadi.

Madinai munavvarada Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning muborak ravzalarini ziyorat qilmoq niyatida ekani, yana: “Iymonim yo‘ldosh bo‘lsa, Borsam, Ka’bani ko‘rsam” yoki “Niyatim Ka’badir, xayolim hajdir, Ixlosim bor haj tavofin etmoqqa”, deyishiga qaraganda, muborak Haj ibodatini ado etmoqni niyat qilgani anglashiladi.

Taniqli sharqshunos olim Ye.Bertels Maxtumqulining “Turgil, dedilar” nomli she’rini Pushkinning “Prorok” (“Payg‘ambar”) she’ri bilan taqqoslab, mushtarak va farqli jihatlarini topishga uringan. Chunki Pushkinning “Payg‘ambar” she’ri Muhammad alayhissalom vasflarini ifoda etsa, Maxtumqulining “Turgil dedilar” she’ri bir necha avliyo zotlar vasfini bayon etadi. She’rdagi tafsilot zohiran Pushkin ifoda etgan voqeaga o‘xshagani uchun Bertelsning e’tiborini tortgan.

Maxtumquli ijodi buyuk ma’rifatga, muqaddas oyatlar va muborak hadislarga, tasavvuf ta’limoti, valiylar hikmatiga hamda ilmi laduniyga asoslangan.

Maxtumquli she’riyati — nurli she’riyat. Uning ijodida dunyoviy va uxroviy ilm-ma’rifatdan xabar beruvchi sermazmun she’rlar alohida mavqeni tashkil etadi. Mutafakkir shoirning butun ma’rifati, islomiy muhabbati, ishqi, shavqi, qayg‘usi she’rlarida aks etadi. She’riyat shoir qalbining ko‘zgusidir. Maxtumquli ijodi butun insoniyatga qaratilgan ma’rifiy xitoblardan iborat, she’riyati ezgulikka chaqiriqdir. Shoirning hazrat Bahouddin Naqshband haqidagi ehtiromli va muhabbatli she’rlaridan hayotbaxsh naqshbandiya ta’limotiga ehtiromi kuchli ekanini anglash mumkin.

Kamina Maxtumquli ijodining sodiq muxlisi va kamtarin tarjimoni sifatida Prezidentimizning shoir tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi qarorini ulug‘ quvonch, ehtirom va e’tirof bilan qarshi oldim. Umid qilamizki, bu tarixiy qaror xalqimiz uchun Maxtumquli ijodini teranroq anglash va ma’rifatidan bahramand bo‘lish yo‘lida yaxshi natijalar beradi.

## Mulohaza

# SAVOBLI ISH SAODATLI BO‘LUR

**Aminjon Ahmedov o‘ttiz yetti yildan beri poytaxtimizning Yakkasaroy tumani Dilbuloq mahallasidagi ko‘p qavatli uylardan birida yashaydi. Uyining orqasidan Salar arig‘i oqib o‘tgan. Yaqin-yaqingacha bu ariqning ahvolini ko‘rgan kishining hafsalasi pir bo‘lar, ich-ichidan achinardi. Qishin-yozin ozmi-ko‘pmi suv oqib turadigan bu ariqning turli-tuman chiqindilar bilan to‘lib borayotgani, atrofga taralayotgan balchiq hidi, afsuski, hech kimni tashvishga solmasdi.**

Eng achinarlisi, uni tozalab, atrofini obodonlashtirish mahalla faollari, mahalliy mutasaddilarning xayoliga ham kelmasdi. Buning ustiga, ayrim odamlar uyidagi chiqindini maxsus idishlarga tashlamay, Salarga uloqtirardi. Bu noxush manzara Aminjonning g‘ashini keltirar, asabini buzar, tegishli idoralarga qilgan murojaatlari javobsiz qolayotganidan xunobi oshardi.

Yelib-yugurishlardan foyda chiqmagach, Aminjonning o‘zi yeng shimarib ishga

kirishdi. U yashayotgan ko‘p qavatli uyning orqa devoriga qadar taqalib kelgan chiqindi uyumlarini ertalab va ishdan kelib, maxsus chiqindi tashlash joylariga ko‘chirdi. Dam olish kunlari tongdan shomgacha ter to‘kdi. Bu holni ko‘rgan qo‘ni-qo‘shnilarining biri havas bilan boqsa, biri hasad qildi. Biri “Hormang, Allohim ishingizning barorini bersin”, desa, boshqasi aftini burishtirgancha o‘tib ketdi. Hatto kechagina tozalangan joyga yuqoridan yelim xalta to‘la chiqindi tashlaganlar ham bo‘ldi.

Besh barmoq barobar emas, ko‘p qavatli uylardagi odamlar ham har xil. Biri yosh bo‘lishiga qaramay, chiqindini balkondan uloqtirsa, boshqasi hassaga tayanib yursa ham, belgilangan joyga olib borib tashlaydi. Hayotida bitta daraxt ham o‘stirmagan, bir parcha joyni obod qilmagan kimsalar esa ko‘p qavatli uylarning oldi va orqasidagi yo‘laklarga mashinalarini qatorlashtirib qo‘yganiga nima deysiz? Har kuni ertalab o‘n-o‘n besh daqiqa qizdiriladigan bu mashinalarning zaharli tutuni daraxt va gullarni qovjiratib quritadi.

Bularni ko‘rganda Aminjonning xayoliga quyidagi savollar kelardi: nega bu holat mahalla oqsoqolini, uning xodim va faollarini, profilaktika inspektorini tashvishga solmaydi? Ko‘p qavatli uylardan iborat zamonaviy mahallaning har bir qarich yerini ozoda tutishga, obod qilishga da’vat etish, bu borada tashabbus ko‘rsatish ularning vazifasi emasmi? O‘z uyimizga, o‘z mahallamizga bepisand qarash bilan yoshlarimizni imoni butun, vijdoni pok, g‘ururi baland, vatanparvar-u mehnatsevar, milliy qadriyatlarimizga sadoqatli, muxtasar aytganda, ma’naviyatli insonlar qilib tarbiyalay olamizmi? Davlatimiz rahbarining bu borada kuyinchaklik bilan bong urayotgani bejiz emasligini qachon anglaymiz-u qachon gapdan amaliy ishga o‘tamiz?

Xullas, qahramonimiz o‘zi yashayotgan ko‘p qavatli uy orqasidagi uch sotixcha joyni tozalab, tekisladi, o‘g‘itladi, motor bilan Salardan suv chiqarib sug‘ordi. So‘ng anor, olma, olcha, olxo‘ri, o‘rik, xurmo, anjir, uzum kabi mevali daraxt ko‘chatlarini tartib bilan ekdi. Mehr bilan parvarish qildi. Ko‘p o‘tmay, yosh nihollar yaproq yozib,

gulga kirdi, meva tuga boshladi. O‘shanda Aminjonning quvonganini bir ko‘rsangiz edi. Nega quvonmasin? Kechagi tashlandiq joyda peshona teri bilan ko‘zni quvnatadigan, dilni yayratadigan mo‘jazgina go‘zal bog‘ yaratdi-ku axir. Shu ishi uchun xursand bo‘lmasinmi? Bo‘ladi-da!

Aminjon ne-ne mashaqqatlar bilan bunyod etgan bog‘ yildan-yilga chiroy ochib, daraxtlari kuchga kirib, yaxshigina hosil bera boshlaganda, o‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozirlar paydo bo‘ldi. Ular mevali daraxtlar g‘o‘rasini yeyish bilan cheklanmay, shoxlarini sindirishgacha bordi. Mehnatiga kuyib qolishni istamagan Aminjon anchamuncha mablag‘ sarflab, bog‘ni panjara bilan o‘rab chiqdi. Lekin bu qaysidir rahbarlarga yoqmadi, panjara olib tashlandi. Ammo bu ish ham bog‘bon yigitning qo‘lini ishdan sovita olmadi, farzandlaridek bo‘lib qolgan har bir niholni ko‘z qorachig‘idek asradi, atrofdagilar ularga shikast yetkazmasligi uchun kun-u tun ko‘z-quloq bo‘ldi. Erta bahorda qiyg‘os gullagan daraxtlaridan ko‘z uzolmay qoldi. Pishganda mevasini qo‘ni-qo‘shnilari bilan baham ko‘rdi.

Yaxshidan bog‘, yomondan dog‘ qolar, deganlaridek, daraxt ekkan, bog‘ yaratgan,

odamlarni ortidan ergashtirib, yurtni obod qilgan rahbar kam bo‘lmaydi.

Yaqinda tuman hokimi bo‘lgan Nilufar Allabergenova Dilbuloq mahallasiga keldi. U mahallaning ijtimoiy muammolaridan tortib, qilinayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan ishlargacha o‘rganib chiqqach, Salar bo‘ylab yurdi. Aminjonning bog‘i oldidan o‘ta turib to‘xtadi. Turli-tuman mevali daraxtlarga mahliyo bo‘lgancha, daraxtlarni kim ekkanini so‘radi. Mahalla oqsoqoli Mirzatilla aka darhol Aminjonga qo‘ng‘iroq qilib, pastga tushishini aytdi. Xiyol o‘tmay, bog‘bon ukamiz bog‘i yonida hokimning savollariga javob berdi. Hokim Aminjonga rahmat aytib, uni yanada obod qilish uchun yordam berishini bildirdi. Bog‘ bo‘yicha hokim topshirig‘ini olganlar keyingi kuni ertalabdan ish boshladi.

Yana bir gap. Ko‘p qavatli uy borki, uning old va orqa tomonida yo‘laklarni ajratib turuvchi bir parcha bo‘lsa ham yer bor. O‘sha yerni Aminjonga o‘xshaganlar gulzoru bog‘ qilib, odamlarga xush kayfiyat baxsh etsa, kimdir beton yotqizib, mashinasini qo‘yadi. Yana kimdir chiqindi tashlab, chiqindixonaga aylantiradi. Bu ish ba’zan qo‘shnilar o‘rtasida nizoga ham sabab bo‘ladi. Aslida, yerni bog‘, gulzor qilgan insonlar go‘zallik yaratmoqda. O‘g‘il-qizlari-yu nabiralarini ona Yerni asrashga, unga mehr berishga o‘rgatmoqda. Bunday odamning mehnatini qadrlamaslik gunoh.

Shu o‘rinda bir taklif: bu tashabbusni Yakkasaroy tumani hokimligi Aminjon Ahmedov misolida barcha mahallalarda tatbiq etsa, tuman qanchalar toza, obod, farovon bo‘lishini tasavvur qilish qiyin emas. Bu tashabbusni poytaxt hokimligi qo‘llab-quvvatlasa, zarar ko‘radimi? Yoki milliard-milliard mablag‘ sarflaydimi? Yo‘q, albatta!

Birinchidan, har bir ko‘p qavatli uyning old va orqa tomoni chiqindiga botib yotmaydi.

Ikkinchidan, o‘sha bir parcha yer inson mehnatidan bahra olib, yashnaydi, yasharadi. Rang-barang gullarga burkanib, havoni muattar hidlarga chulg‘aydi. Bu qo‘shnilar o‘rtasidagi ishonch, hurmat, mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bolalarni tozalikka, tartib-intizomga, mehnatga, tabiatni sevishga, o‘z uyi va mahallasini asrashga o‘rgatadi.

Uchinchidan, inson hayoti uchun zarur bo‘lgan havo tozalanadi. Har bir mahalla havas qilgulik chiroyga ega bo‘ladi.

Lekin bu xayrli va savob ish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Bunga e’tibor, bosh-qosh bo‘ladigan, qo‘llab-quvvatlaydigan, himoya qiladigan tashkilotchi rahbar kerak. Shunga erishsak, yurtimizdagi barcha mahallalar, qishloqlar, shaharlar chiroyiga chiroy qo‘shilib, yanada gullab-yashnaydi. Unutmang, savobli ish saodatli bo‘lur.

**Nuriddin OCHILOV,**
*jurnalist*

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 592.
9800 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 02:15 Topshirildi — 02:45